

SURXONDARYO VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISH YO‘LLARI VA UNI MOLIYAVIY SALOHIYATGA TA’SIRI

Buranova Lola Vaxobovna

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasini mudiri, PhD

lolaburanova51@gmail.com

Shamsiddinov Salohiddin Faxriddinovich

Iqtisodiyot va turizm fakulteti 3-bosqich talabasi

Ibragimov Sanjar Abdujabbor o‘g‘li

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar boyicha) 2-kurs magistri

ANNOTATSIYA

Keltirilgan ushbu moliyaviy salohiyatni mustaxkamlashda sanoat korxonalarining ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish yo‘llari nomli maqolada, Surxondaryo viloyatining moliyaviy salohiyatiga sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish hajmining ta’siri va uning segmenti qurilish korxonalarining ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish tannarxiga ta’sir etuvchi omillar ekonometrik modellari va 2027 yilgacha prognoz stenariylari keltirilgan. Moliyaviy salohiyatni mustahkamlashda byudjet parametrlari, soliq salohiyatining o‘rni va hududda faoliyat yuritayotgan har bir korxonaga moliyaviy resurslari o‘rni beqiyosdir.

Kalit so‘zlar. Moliyaviy salohiyat, soliq salohiyati, rentabellik, tannarx, ishlab chiqarish xarajatlari, asosiy vasita, mehnat haqi.

АННОТАЦИЯ

В статье «Укрепление финансового потенциала путём снижения себестоимости продукции промышленных предприятий» рассмотрено влияние объема производства промышленной продукции на финансовый потенциал Сурхандарьинской области, проанализированы основные факторы влияющие на объем производства строительных предприятий, построены эконометрические модели и прогнозные сценарии до 2027 г. Роль каждого действующего в регионе предприятия несравнима в укреплении параметров бюджета, налогового потенциала и финансовых ресурсов данного региона.

Ключевые слова. Финансовый потенциал, налоговый потенциал, рентабельность, себестоимость, издержки производства, основные средства, заработная плата.

ABSTRACT

The article “Strengthening the financial potential by reducing the cost of production of industrial enterprises” considers the impact of the volume of industrial production on the financial potential of the Surkhandarya region, analyzes the main factors affecting the volume of production of construction enterprises, built econometric models and forecast scenarios until 2027. The role of each operating in the region enterprises is incomparable in strengthening the parameters of the budget, tax potential and financial resources of the region.

Keywords: Financial potential, tax potential, profitability, cost, production costs, fixed assets, wages.

KIRISH

Moliyaviy salohiyat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda samarali qarorlar qabul qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda mahalliy xokimliklarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish, tuman, shahar va qishloqlarni barqaror rivojlantirish hisoblanadi[1].

Mustaqillik yillarida respublikamiz hududlarining moliyaviy salohiyatini oshirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirildi. Surxondaryo viloyatining mahalliy byudjet daromadlarini mustahkamlashda sanoat mahsulotlari hajmini 1,9 barobarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab yaiqarishni 1,2 barobarga, xizmatlar xajmini 2,3 barobarga hamda qurilish ishlari xajmini 1,7 barobarga oshirishni maqsad qilib belgilangan[3].

Oldingi tadqiqotlarimizda Surxondaryo viloyatining moliyaviy salohiyatini baholashda ta'sir etuvchi omillarini o'rganish va qisqa hamda uzoq muddatli davrlarda ularning ekonometrik modellarini tuzish muhim ahamiyat kasb etadi deb ta'kidlab o'tkanmiz[5]. Ko'p omilli ekonometrik model natijaviy omilga bir qator omillar ta'sirini o'rganishga yordam beradi.

Shunday omillardan biri sanoat korxonalarini rivojlantirish va yalpi hududiy mahsulot hajmini oshirishdan iborat. Surxondaryo viloyati sanoat korxonalari tarmog'ida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari alohida o'rin egallaydi. Bu borada “Yangi O'zbekiston” massivlari, ko'p qavatli uy-joylar qurilishini va

renovatsiya dasturlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish ko'zda tutilgan hamda vazifalar belgilangan. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Surxondaryo viloyatining strategik dasturiga kiritilgan: - "Qurilish materiallari sanoatida 1 mlrd dollarlik 900 ta loyihalarni ishga tushirish, 14 mingta ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish hajmini 5 barobarga oshirish hamda yiliga 670 mln dollarlik import o'rnini bosuvchi va 280 mln dollarlik eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish" maqsadlar belgilangan[3].

O'rganilganlik darajasi. Moliyaviy salohiyatni baholashga, unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga, ularning ekonometrik modellarini tuzish va prognozlarini tadqiq etishda bir qancha olimlar tadqiqotlarini ko'rib chiqdik. Jumladan, D.Nexaychuk va A.Juchik tahlillarida moliyaviy salohiyatni makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholash usuli o'rganilgan va bunda Milliy hisoblar tizimiga bog'lagan holda taqqoslash usulini xam qo'llanilgan. Regression tahlil usuli orqali moliyaviy salohiyat elementlarini tanlab olib, moliyaviy salohiyat va uni shakllantirovchi moliyaviy oqimlar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni R.Prokopenko, J.Golodova, R.Badilevich va E.Verbinenko tomonidan o'rganilgan. Bunday modifikatsiyada iqtisodiy – matematik modellashtirish usullari, integral va reyting usullari xam keltirilgan.

Hududlarning moliyaviy salohiyatini oshirish va undagi asosiy elementlaridan mahalliy byudjet daromadlarini mustahkamlashga, soliq salohiyatini baholash metodologiyasini tadqiq etgan olimlarimizdan S.Xudoykulov: - "Davlat jamiyatdagi asosiy siyosiy va tartiblovchi kuch sifatida yaratilgan milliy mahsulot(daromad)ning qancha qismini markazlashtirilgan pul fondlariga olish masalasini hal etishiga qarab soliq potentsiali darajasi ham aniqlanadi, ammo, bu yerda iqtisodiy sub'ektlarning soliq potentsiali ularning moliyaviy resurslarga egaligi bilan o'lchanadi, davlat esa soliq siyosatini ishga solish orqali ushbu moliyaviy resurslar (potentsiali)ning qancha qismini byudjetga va boshqa maqsadlarda olishni oydinlashtiradi, ya'ni moliyaviy resurslar (potentsiali)ning qancha qismi soliq potentsialiga aylanishining chegarasini o'rnatadi" – deb ta'kidlaganlar[4].

Sanoat tarmog'ining barqaror rivojlanishini e'tiborga olgan holda erishilayotgan samardorligini baholash uslubiyatini takomillashtirish, ishlab chiqarish mexanizmlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish, iqtisodiy samardorligini oshirish hamda raqamlashtirish va jahon bozori darajaga mos mahsulotlarni yetkazib berish sharoitlarini e'tiborga olgan xolda barqaror rivojlantirishning meyyoriy chegaralarini zamonaviy tendentsiyalarga asoslanib baholash usulini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimlardan A.Smit, A.Marshal, Dj.Keyns hamda mamlakatimiz olimlaridan A.Burxanov[6], B.Salimov, N. Maxmudov[7] hisoblanadi. Ular tomonidan sanoat tarmog'ining barqaror rivojlanishini e'tiborga olgan holda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish tannarxini

pasaytirish yo'llari mexanizmlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish, iqtisodiy samaradorligini oshirishga yo'naltirilgin ishlarini olib bormoqdalar.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraktsiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, prognozlash va boshqa standart usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Surxandaryo viloyatining moliyaviy salohiyatiga ta'sir etivchi omillardan sanoat korxonalarining ishlab chiqarish xajmining o'zgarishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar hisoblanadi. ishlab chiqarish hajmi qurilish majmuasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Hududda 2000-2022 yillarda qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmida o'sish tendentsiyalari kuzatilgan. Agar 2000 yilda ishlab chiqarish hajmi 17,4 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2022 yilga kelib 375,6 barobar o'sgan va 6545,4 mlrd so'mga etgan.

Hudud qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmida bino va inshootlarni qurish 74,1%, fuqarolik ob'ektlarini qurish 20,2% va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 5,7% ni tashkil etgan.



1-rasm. Surxondaryo viloyati qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'm)¹

Bunda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya sarfini kamaytirish, inson omili o'rnini bosuvchi yuqori texnologiyalardan foydalanish, shuningdek kamroq material sarfini ko'zda tutuvchi qurilish materiallari ishlab chiqarish orqali aholining sotib olish qobiliyatlariga mos bo'lgan hamda shu bilan bir vaqtda maqbul narxlardagi qurilish materiallari yetkazib berish asosiy o'rin tutadi. Ayni paytda qurilish materiallarining narxi esa bozor dinamikasi bog'liqdir.

Qurilish materiallarining bozor qiymatining shakllanishiga bir qancha omillar ta'sir etib, uning shakllanishi bozorning tasodifiylik xarakteriga bog'liqdir. Bu esa


¹ Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlangan

ehtimoliy ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga, jarayonni eng yaxshi tavsiflovchi modelni qurishga va ishonchli xulosalar qilishga imkon beradi. Narxlar dinamikasini o'rganish, uning joriy harakatini tahlil qilish va kelajakdagi o'zgarishini taxmin qilishda ekonometrik modellashtirish asosiy o'rin tutib, u orqali haqiqiy jarayonga eng mos model qurish ko'zda tutiladi.

Qurilish materiallarining narxi qurilish loyihalarida qanday materialdan foydalanishni hal qilishda asosiy hal qiluvchi omillardan biri bo'lishi mumkin¹. Qurilish materiallarining bozor dinamikasini ekonometrik tadqiq etishda ham uning bozordagi narxi markaziy o'rin tutadi. Bunda unga ta'sir etuvchi omillar sifatida mahsulot tannarxi, resurslar, asosiy vositalar va boshqalar tanlab olinadi. Shu bilan birga, mahsulotning tannarxini pasaytirish va resurslardan samarali foydalanish masalasi aynan tannarxni tadqiq etishni taqozo qiladi.

Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining, xususan g'isht tannarxini tadqiq etish maqsadida 8 ta ishlab chiqarish korxonasi tanlab olindi. Tanlab olingan barcha korxonalar ushbu bozor segmentida 2010 yildan faoliyat yuritib kelayotganligiga e'tibor qaratildi.

Korxonalarining o'rtacha rentabelligi 1,43 birlikni tashkil etgan. Ushbu korxonalarda jami 97 nafar, o'rtacha esa 20 nafar ishchi-xodim hizmat qilib, o'rtacha mehnat unumdorligi 6,08 ni va mehnat sig'imi 0.16 ni tashkil etgan. Korxonalarining o'rtacha kapital qaytimi 0.7 va kapital sig'imi 1,42 ni tashkil etgan (2-rasm).



2-rasm. Surxondaryo viloyati ayrim g'isht ishlab chiqaruvchi korxonalarining kapital samaradorligi ko'rsatkichlari².

¹ <https://www.statista.com/topics/2983/construction-materials-industry/#dossierKeyfigures> - Provider of market and consumer data "Statista"

² Muallif ishlanmasi.

Ushbu korxonalarining hisobot yilida ishlab chiqarish hajmi 3 343,9 mln so‘mni, asosiy vositalari qiymati 9 401,35 mln so‘mni tashkil etgan. Ularda 82 nafar ishchi-hodimlar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, mehnatga haq to‘lash xarajatlari 1 090,06 mln so‘mni tashkil etgan.

Ishlab chiqarilgan g‘isht mahsulotlari tannarxining o‘rtacha 16,25%ni yoqilg‘i-energiya mahsulotlari tashkil etgan holda, korxonalarining o‘rtacha davr xarajatlari mahsulot tannarxining 28,55% ga teng kelgan. Bu esa mahsulot narxining oshishiga olib kelgan.

Korrelyatsion-regression tahlilda natijaviy belgi sifatida ishlab chiqarilgan g‘isht tannarxi va unga ta‘sir etuvchi ko‘rsatkichlar sifatida, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, asosiy vositalarning qiymati, ishchi-xodimlar soni, mehnatga haq to‘lash, moddiy xarajatlar, energiya sarfi, davr harajatlari, rentabellik, sof foyda ko‘rsatkichlari tanlab olindi (3-jadval).

Regression tahlil Gretl 2021a dasturida amalga oshirildi.

3-jadval

Surxondaryo viloyatidagi g‘isht ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan g‘ish mahsuloti tannarxi va unga ta‘sir etuvchi omillar¹

| Korxonalar tartib raqami | Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi (mln. so‘m) | Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (mln. so‘m) | Asosiy vositalarning qiymati (mln. so‘m) | Ishchi-xodimlar soni (birlik) | Mehnatga haq to‘lash (mln. so‘m) | Moddiy xarajatlar (mln. so‘m) | Energiya sarfi (mln. so‘m) | Davr harajatlari (mln. so‘m) | Rentabellik | Sof foyda (mln. so‘m) |
|--------------------------|--|---|--|-------------------------------|----------------------------------|-------------------------------|----------------------------|------------------------------|----------------|-----------------------|
| n | y | x ₁ | x ₂ | x ₃ | x ₄ | x ₅ | x ₆ | x ₇ | x ₈ | x ₉ |
| 1 | 250,000 | 1 220,470 | 355,957 | 8 | 81,900 | 36,000 | 8,460 | 110,000 | 320,188 | 800,470 |
| 2 | 675,786 | 829,186 | 1 233,471 | 9 | 114,400 | 169,000 | 56,638 | 114,000 | 2,664 | 18,000 |
| 3 | 136,588 | 869,457 | 1 644,250 | 10 | 88,440 | 68,450 | 17,879 | 41,832 | 12,058 | 16,470 |
| 4 | 852,671 | 1 462,207 | 1 577,578 | 24 | 208,850 | 554,236 | 104,413 | 259,710 | 34,873 | 297,352 |
| 5 | 773,104 | 1 107,379 | 3 112,468 | 12 | 321,800 | 347,897 | 195,300 | 254,201 | 1,135 | 8,772 |
| 6 | 423,518 | 638,825 | 903,325 | 7 | 156,775 | 336,485 | 166,514 | 211,210 | 2,624 | 11,112 |
| 7 | 108,500 | 356,840 | 452,049 | 7 | 75,890 | 36,854 | 29,844 | 13,540 | 5,069 | 5,500 |
| 8 | 123,732 | 139,132 | 122,250 | 5 | 42,000 | 80,650 | 1,000 | 13,924 | 0,999 | 1,236 |

¹ Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida ishlangan

4-jadval

Surxondaryo viloyatidagi g‘isht ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan g‘ish mahsuloti tannarxining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha korrelyatsiya matritsasi¹

Correlation coefficients, using the observations 1 - 8
5% critical value (two-tailed) = 0.7067 for n = 8

| | | | | | |
|--------|--------|--------|---------|---------|----|
| y | x1 | x2 | x3 | x4 | |
| 1.0000 | 0.6731 | 0.6769 | 0.7182 | 0.8130 | Y |
| | 1.0000 | 0.5399 | 0.7649 | 0.5804 | x1 |
| | | 1.0000 | 0.4816 | 0.8868 | x2 |
| | | | 1.0000 | 0.5548 | x3 |
| | | | | 1.0000 | x4 |
| x5 | x6 | x7 | x8 | x9 | |
| 0.8498 | 0.7044 | 0.8742 | -0.1781 | -0.0067 | Y |
| 0.5610 | 0.3398 | 0.7056 | 0.4231 | 0.5706 | x1 |
| 0.5514 | 0.7068 | 0.6488 | -0.3284 | -0.2710 | x2 |
| 0.7958 | 0.3338 | 0.6559 | -0.0598 | 0.1879 | x3 |
| 0.7665 | 0.8944 | 0.8773 | -0.2209 | -0.1198 | x4 |
| 1.0000 | 0.7645 | 0.9045 | -0.2967 | -0.0829 | x5 |
| | 1.0000 | 0.8645 | -0.3446 | -0.2773 | x6 |
| | | 1.0000 | -0.0290 | 0.1231 | x7 |
| | | | 1.0000 | 0.9647 | x8 |
| | | | | 1.0000 | x9 |

4-jadval natijalariga ko‘ra natijaviy belgi bilan $r > 0,7$ shartga ko‘ra x_3, x_4, x_5, x_6, x_7 omil belgilar zich bog‘langanligini ko‘rish mumkin. Ushbu omil belgilar esa o‘zaro quyidagicha, ya’ni x_3 bilan $x_5; x_4$ bilan $x_5, x_6, x_7; x_5$ bilan $x_3, x_4, x_6, x_7; x_6$ bilan $x_4, x_5, x_7; va x_7$ bilan esa x_4, x_5, x_6 kuchli bog‘lanishda ekanligi, multikolleniarlik mavjudligidan darak bermoqda. Ayni paytda natijaviy belgi bilan bir payda ham zich bog‘langan hamda o‘zaro zich bog‘lanishda bo‘lmagan ko‘rsatkichlar esa x_3 bilan $x_4; x_3$ bilan $x_6; x_3$ bilan x_7 omil belgilar ekanligi kuzatish mumkin.

Demak, regression tahlil uchun quyidagi modellarni qurish maqsadga muvofiqdir:

$$- \quad y = a_1 + b_1x_3 + b_2x_4 \quad (1)$$

$$- \quad y = a_2 + b_3x_3 + b_4x_6 \quad (2)$$

$$- \quad y = a_3 + b_5x_3 + b_6x_7 \quad (3)$$

Amalga oshirilgan regression tahlil natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

¹ Muallif ishlanmasi

5-jadval

Regression tahlil natijalari¹

| Model | Belgilar | Koeffitsient | Styudentning t mezoni qiymati | Fisherning F mezoni qiymati | R ² | Akaike mezoni |
|-------|----------------|--------------|-------------------------------|-----------------------------|----------------|---------------|
| (1) | const | -64,7620 | -0,4663 | 8,094563 | 0,764030 | 107,8511 |
| | x ₃ | 20,0958 | 1,478 | | | |
| | x ₄ | 2,03122 | 2,294 | | | |
| (2) | const | -29,1135 | -0,2135 | 7,864592 | 0,758794 | 108,0267 |
| | x ₃ | 28,3112 | 2,333 | | | |
| | x ₆ | 2,16412 | 2,245 | | | |
| (3) | const | 11,5255 | 0,09488 | 10,06398 | 0,801018 | 106,4872 |
| | x ₃ | 13,2314 | 0,9613 | | | |
| | x ₇ | 2,12753 | 2,677 | | | |

5-jadvalga ko‘ra barcha modellar $\alpha = 0,05$ bo‘lganda ahamiyatli hisoblansada, parametrlari statistik jihatdan ishonchli emasligini ko‘rishimiz mumkin. Faqat (2) modelning barcha koeffitsientlari (const ni hisobga olmaganda) $\alpha = 0,1$ ahamiyatlilik darajasida ishonchli. Shu sababli biz (2) modeldan const ni chiqarib tashlashga qaror qildik (6-jadval).

6-jadval.

Model parametrlarini baholash natijalari²

| | Coefficient | Std. Error | t-ratio | p-value | |
|----------------------|-------------|--------------------|---------|----------|----|
| x3 | 26.3920 | 7.47383 | 3.531 | 0.0123 | ** |
| x6 | 2.12127 | 0.864797 | 2.453 | 0.0496 | ** |
| Mean dependent var | 417.9874 | S.D. dependent var | | 309.6824 | |
| Sum squared resid | 163402.5 | S.E. of regression | | 165.0265 | |
| Uncentered R-squared | 0.921025 | Centered R-squared | | 0.756596 | |
| F(2, 6) | 34.98650 | P-value(F) | | 0.000493 | |
| Log-likelihood | -51.04963 | Akaike criterion | | 106.0993 | |
| Schwarz criterion | 106.2581 | Hannan-Quinn | | 105.0277 | |

6-jadvalda keltirilgan regression tahlil natijalari modelning ahamiyatli, uning parametrlari $\alpha = 0,05$ bo‘lganda ishonchli va $R^2 = 0,92$ ekanligini ko‘rsatmoqda. Shunday qilib ekonometrik modelimiz quyidagi ko‘rinishni oldi:

$$y = 26,392x_3 + 2,121x_6 \quad (4)$$

Shunday qilib, Surxondaryo viloyatidagi tahlil uchun tanlab olingan korxonalarda ishlab chiqarilgan g‘isht maxsulotlarining tannarxning shakllanishiga korxonlardagi ishchi-xodimlar soni, mehnatga haq to‘lash, moddiy xarajatlar, energiya sarfi, davr harajatlari kuchli ta‘sir qilishi aniqlandi. Tahlil uchun tanlab olingan korxonalarda tannarx va unga kuchli ta‘sir etuvchi ishchi xodimlar soni va energiya sarfi omillari

¹ Muallif ishlanmasi


² Muallif ishlanmasi

bo'yicha regression tahlil natijasida model tuzildi. Tuzilgan modelga ko'ra ishchi-xizmatchilarning bir birlikka kamayishi tannarxni 26,392 mln. so'mga va energiya sarfini bir birlikka kamaytirish esa uni 2,121 mln. so'mga pasaytirishi aniqlandi.

Surxondaryo viloyatidagi moliyaviy salohiyatga ishchi-xizmatchilarning bir birlikka kamayishi taskari ta'sir ko'rsatadi, energiya sarfini bir birlikka kamaytirish esa to'g'ri proportsional ravishda bo'ladi. Buni oldingi tadqiqotlarimizda ta'kidlab o'tgan edik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Surxondaryo viloyati qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmi qurilish majmuasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotimizning 1-rasmda keltirgan ma'lumotlariga asosan, hudud qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmi o'sish tendentsiyasini tashkil etganligini ko'rish mumkin. Bu esa uni trend modellari bilan prognozlashda eksponentsial, II-darajali polinomli trend tenglamalarni qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Shu tariqa Surxondaryo viloyati qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmi 2 xil stsenariyda prognoz qilish rejalashtirildi. 1-stsenariy optimistic va 2-stsenariy inertsiyon rivojlanish holatlarini ko'rsatib beradi.



3-rasm. Surxondaryo viloyati qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha trend tenglamalari chizmalari¹

3-rasmdan barcha trend tenglamalari iqtisodiy jarayonga mosligini ko'rish mumkin, biroq determinatsiya koeffitsienti masalaga yanada oydinlik kiritadi. Microsoft Excel dasturi imkoniyatlaridan foydalanib, trend tenglamalari determinatsiya koeffitsientlari aniqlandi. Unga ko'ra eksponentsial trend tenglamasi bo'yicha determinatsiya koeffitsienti qiymati 0,9952, II-darajali polinomli trend tenglamasi bo'yicha esa 0,9614 ekanligi aniqlandi.

Regression tahlil natijasida trend tenglamalari parametrlari aniqlandi (7-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi

Regression tahlil natijasidagi trend tenglamalari parametrlari¹

7-jadval

| T/r | Model turi | Tenglamasi | Fisher F mezon | Styudent t mezon | Standart xato |
|-----|-----------------------|--------------------------------------|----------------|---------------------------------|---------------|
| 1. | Eksponentsial | $y_1 = 15,922e^{0,271t}$ | 4363,9 | 49,2 *** 66,1 *** | 0,13 |
| 2. | II-darajali polinomli | $y_2 = 928,72 - 345.05t + 24,707t^2$ | 249,2 | 3,3 *** -6,4 *** 11,3 *** | 410,09 |

7-jadval natijalaridan shu ma'lum bo'lmoqdaki, barcha modellar Fisherning F mezon jadval qiymatidan ancha katta qiymatga ega bo'lgan. Shuningdek, modellar parametrlari barcha ahamiyatlilik darajalarida Styudent t mezon jadval qiymatidan katta bo'lib, statistik ahamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Bundan barcha modellar iqtisodiy jarayonga to'g'ri kelishini bilib olish mumkin.


Qurilgan modellardan foydalanib, qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmini 2027 yilga qadar prognoz qilamiz:

8-jadval

Surxondaryo viloyati qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmi 2027 yilga qadar prognozi²

| Yillar | Optimistik stsenariy | Inertsion stsenariy | Optimistik stsenariy bo'yicha o'sish | Inertsion stsenariy bo'yicha o'sish |
|--------|----------------------|---------------------|--------------------------------------|-------------------------------------|
| 2023 | 10641,79 | 6878,99 | 131,13 | 113,46 |
| 2024 | 13954,79 | 7744,61 | 131,13 | 112,58 |
| 2025 | 18299,20 | 8659,64 | 131,13 | 111,82 |
| 2026 | 23996,11 | 9624,08 | 131,13 | 111,14 |
| 2027 | 31466,58 | 10637,94 | 131,13 | 110,53 |

8-jadvaldan shu ma'lum bo'lmoqdaki, Surxondaryo viloyati qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmi 2027 yilga kelib optimistik prognozga ko'ra 31 466,58 mlrd so'mga, inertsion prognozga ko'ra esa 10 637,94 mlrd so'mga etishi hamda o'rtacha o'sish suratlari esa mos ravishda 131,13% va 111,91% ni tashkil etishi kuzatilishi mumkin (4-rasm).



¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

4-rasm. Surxondaryo viloyati qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmi prognozi¹

Shunday qilib, 2027 yilga qadar qurilish korxonalari ishlab chiqarish hajmi optimistik prognozga ko'ra 4,8 barobar, inertsiya prognozga ko'ra esa 1,6 barobar o'sishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-№60 "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni. - 28.01.2022y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-№27 "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da malga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" Farmoni. - 28.02.2023y.
3. O'zbekiston respublikasini Vazirlar Mahkamasining №245 "2022-2026 yillarda Surxondaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qushimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori.-10.05.2022y.
4. Xudoyqulov S.K. Soliq tizimi : Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'll. / S. K.Xudoyqulov ; muharrir I. Usmonov ; O'zbekiston Resp. oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. – Toshkent : Ilm ziyo, 2012 – 301
5. Burxanov A.U. Modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida sanoat korxonalarini rivojlantirishning metodologik jixatlari.//Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2015 №5.
6. Maxmudov N., Asqarova M.T.Makroiqtisodiy tahlil va prognoz qilish. Darslik. Fan va texnologiyalar/ 2014 yil/-315b.
7. Gaibnazarova Z.T. Sanoat korxonalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda inson kapitalining modernizatsiyalashga ta'siri/ Monografiya/-T.: "Iqtisodiyot", 2020. 134b.
8. Buranova L.V. Hududlarning moliyaviy salohiyatini baholash orqali mahalliy budjet daromadlarini mustahkamlash masalalari (Surxondaryo viloyati misolida)/ Monografiya.-IFRON-PRINT-2022 y.- 161b.
9. Вербиненко Е.А., Бадыевич Р.В. Финансовый потенциал как основа роста регионов// Север и рынок: формирование экономического порядка. № 3 2012.-с 58-62.
10. Голодова Ж.Г. Формирование и управление финансовым потенциалом региона в целях обеспечения его экономического роста. Автореферат. Москва. 2010 год с 48.

¹ Muallif ishlanmasi